

KOREA ADABIYOTI VA TARIXI

Sodiqova Charos

Kimyo International University in Tashkent Koreys tili filologiya 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Har bir xalq o'z adabiyoti bilan faxrlanadi. Adabiyot tarix demakdir. Unda usha davr urf odati va an'analarini aks etgan bo'ladi. Maqolamizda korea xalqi adabiyoti va uning tarixini o'rganamiz.

Adabiyot insoniyat tarixida juda muhim o'rinni tutadi. Koreys xalqi og'ir ahvolga tushib qolganidan so'ng, ularning barchasi kundalik hayoti bilan bog'liq amaliy ishlarga to'liq berilib ketgan. Bunday sharoitda odamlarning o'sha hayotdan tashqarida mavjud bo'lgan, narsa haqida ya'ni, adabiyot haqida o'yashlari qiyin bir masala edi. O'sha vaqtarda insonlar faqatgina o'z ehtiyojlari haqida o'yashgan. Diniy qarashlar keyinchalik adabiyot shakillanishiga turtki bo'ldi.

Xanmundagi she'riyat bilan bir qatorda idu usulida yozilgan koreys tilidagi she'riyat ham mavjud bo'lgan. Ona tilidagi koreys she'riyati xalq laparlari va qo'shiqlari zaminida vujudga kelgan. Ilk koreys yodgorliklari Koreya yarimorolida yashagan qabilalarda mazkur ijodning rang-barang bo'lganini tasdiqlaydi.

Ular qo'shiqchilik san'ati Koreya jamiyatining hayotida davlat vujudga kelishidan oldingi davrda va o'tish davridagina emas, balki rivojlangan adabiyatga ega bo'lgan kuchli markazlashgan byurokratik davlat mavjud bo'lgan Koryo sulolasi hukmronligi boshlangunga qadar ham ulkan rol o'ynaganidan dalolat beradi.

Ona tilidagi she'riyat mehnat jarayoniga yo'ldosh bo'lgan, u barcha an'anaviy bayramlarning ajralmas qismi sanalgan, kasalliklar va tabiiy ofatlar davrida turli marosimlarda undan foydalanilgan. Uning mazkur roli ona tilidagi she'riyat haqida adabiy fakt sifatida so'z yuritish mumkin bo'lgan zamonlarda ham saqlanib qolgan (masalan, "Uch davlat davridan qolgan voqealar" dan o'rinni olgan voqeada davlatdan xavf-xatarni qaytarish haqidagi o'tinchda xyangadan foydalanish). U yozma shakl kasb etganidan keyingina adabiy hodisaga aylangan. Ona tilidagi she'riyat – xyanga ("Qadrondan makon qo'shiqlari") yoki Senen nore yoki Sanvega

("Sharq qo'shiqlari"). Bu atama muayyan tipdagi she'riy asarlar-o'n misrali xyangani ifodalash uchun ishlatiladi. Xyanga VIII–X asrlarga mansub hodisa hisoblanadi. Xyanga matnlari bizgacha "Kyunyonning ko'rgan-kechirganlari" asarida (o'n bir xyanga) va "Uch davlat davridan qolgan voqelar" da (o'n to'rt xyanga) yetib kelgan.

Klassik Korea adabiyotini dunyo tan olgan. Kores adabiyotining ilk namunalardan bizga juda kichik parchalar yetib kelgan holos. Koreys adabiyotining yuzaga kelishi ilk yozuv paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladidi. Kogoryo davlati asoschisi Tomnyon Chumon haqida rivoyatlar, Choson davlati asoschisi Tangum Vangom haqidagi rivoyatlar kores adabiyotining salmoqli durdonalaridandir.

Koreys adabiyotida mifalogik qahramonlar juda ko'p bo'lgan. Ular davlat hukumdarlarini ilohiyashtirib ifodalashgan.

Koreys adabiyoti Koreyada koreys yozuvchilari tomonidan yaratilganadabiyotlar majmuasidir. Tarixning ko'p qismida u xitoy va koreys tillarida birinchi bo'lib, qadimgi yozuv transkripsiya tizimlaridan foydalangan holda va nihoyat koreys yozuvidan foydalangan holda

yozilgan. U odatda klassik va zamonaviy davrlarga bo‘linadi, garchi bu farq ba’zan noaniq bo‘lsa ham. Xanmun xitoycha belgilar bilan koreys tiliga uning qadr-qimmatini berishga harakat qilganlar o‘rtasida har doim keskinlik bo‘lgan. Natijada, haqiqiy koreys adabiyoti deb hisoblanishi kerak bo‘lgan munozaralar paydo bo‘ldi. 1910-yildan 1945-yilgacha Yaponiya istilosi ostida ba’zi koreys olimlari til va adabiyotda sof koreys tilini tiklashga harakat qilishdi. Ular begona narsalarni olib tashlashga umid qilishdi. Ozodlikdan keyin boshqalar xitoycha belgilarda yozilgan asarlarni hisobga olmay, koreyslarning asl ruhi nima ekanligiga e’tibor qaratishga harakat qilishdi. Bugungi kunda koreys adabiyoti merosining bir qismi sifatida xitoycha belgilar va hanguldagagi asarlarning ikkala turini ham qabul qilish bo‘yicha umumiy kelishuv mavjud. Bundan tashqari, koreys adabiyoti dastlab og‘zaki shaklda, ba’zan esa yoki hangul kabi aralash shaklda yozilganidan beri ilk davr an’anaviy og‘zaki adabiyoti bo‘yicha qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Kores adabiyoti o’zidan keng manaviy meros qoldirgan bo’lib, bugungi kunda korea kinolarida ham adabiyot va undagi mifalogik qahramonlar obrazlaridan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/24400/16012/23291>
2. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4336/5655>
3. <https://ilmiybaza.uz/document/klassik-koreys-adabiyoti-namunalari/>